

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILLOVA TO'RPLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A.Abduvaliyeva

Markaziy Osiyo o'rta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A.Nishonov	
Farg'ona vodiysida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A.Aloxunov, B.B.Jo'raqulov	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A.Nishonov	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi.....	677
R.X.Akbarov	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki.....	681
R.X.Akbarov	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V.Yo'idoshev	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M.Maxmudov	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhohijrlari taqdiri.....	695
A.M.Maxmudov	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?.....	698

ADABIYOTSHUNOSLIK**K.A.Topvoldiyev**

Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness.....	701
---	-----

H.K.Sabirov

Средняя Азия в путевых заметках Ф.С.Ефремова.....	706
---	-----

A.P.Kosimov

Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
--	-----

H.A.Jo'rayev, Y.I.Nishanov

Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
--	-----

H.M.Karimova

Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
--	-----

Y.I.Nishanov

Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
--	-----

I.N.Doronina

«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
--	-----

Э.Ф.Гиздулин

Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
---	-----

X.Sharifiddinov

Zamon qyofalangan tarixiy roman	732
---------------------------------------	-----

E.Ibragimova, N.Sharafutdinova

Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar.....	735
--	-----

G.V.Abdullayeva

Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
---	-----

S.A.Xodjayev, Ch.I.Turg'unova

O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
--	-----

X.A.Abdulxamidova, D.U.Jamoliddinova

Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi.....	749
--	-----

X.J.Jamolova

Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
---	-----

M.M.Xamidov

O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
---	-----

R.M.Umurzakov

Bola obrazining nazariy muammolari	761
--	-----

J.B.Sayidolimov

"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar	765
--	-----

TARIX

so'nggi paleolitga taalluqligini qayd etmoqda [45]. Bundan tashqari, yurtimizdagи ochiq tipdagи yodgorliklardan Qo'tirbuloq, Ko'lbulоq va boshqa manzilgohlarning geologik holatlari haqida ham turli talqinlar mavjud. Ularni bevosita o'rgangan tadqiqotchilar [46] madaniy qatlamlarni aralashmagan desalar, boshqalar [47] ularni aralashib ketgan holatda yotadi, degan fikrlarni bildiradilar.

XULOSA

O'rta paleolit davri yodgorliklarini davriy va madaniy mansubligi masalasida R.X. Suleymanov tomonidan ilgari surilgan fikrlarda O'rta Osiyo hududidagi ko'plab yodgorliklar bitta obiraxmat tipidagi yodgorliklar guruhiga biriktirilgan edi. Oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ham o'z vaqtida berilgan ushbu ilmiy xulosalarning to'g'ri ekanligini tasdiqladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Окладников А.П. Мустьерская стоянка в гроте Тешик-Таш в Узбекистане // КСИИМК. Вып. 2. 1939. – С. 36. Окладников А.П. Находка неандертальца в Узбекистане // ВДИ. № 1. 1939а. – С. 78; Окладников А.П. Исследование палеолитической пещеры Тешик-Таш (предварительное сообщение) // Труды Узб. Филиала АН СССР, вып. 1. 1940. – С. 180; Окладников А.П. Неандертальский человек и следы его культуры в Средней Азии (предварительные данные и выводы о раскопках в гроте Тешик-Таш) // СА. Вып. 6. 1940а. – С. 56; Окладников А.П. Первобытный человек Узбекистана // Наука и жизнь. № 1. 1940б. – С. 55; Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949а. – С. 7; Там же. – С. 9; Movius H. L. Paleolithic and Mesolithic sites in Soviet Central Asia // Proceeding of the American Philosophical Society. vol. 57. 1953. – Р. 24; Bordes F. L'Industrie moustérienne de Teshic-Tash Affinites et age probable L'Anthropologie. t. 59 № 3\4, 1955. – Р. 46; Ранов В.А., Несмейнов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973. – С. 74; Абрамова З.А. Грот Тешик-Таш – памятник мирового значения // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988. – С. 23; Григорьев Г.П. Тешик-Таш и мустье Средней Азии 1988 // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988. – С. 34.
2. Громова В.И. Плейстоценовая фауна млекопитающих из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949. – Р. 44.
3. Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949 а. – С. 67.
4. Суслова В.П. Плейстоценовая орнитофауна из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949. – С. 34.
5. Muhammadiev A.G'. "O'rta paleolit davri xomashyodan foydalanish strategiyalari (Muzbel, Xatak va Angillak yodgorliklari materiallari asosida)" // Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – В. 51.
6. Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш. Палеолитический человек. – М.: Изд-во МГУ, 1949. – С. 49-61.
7. Muhammadiev A.G'. "O'rta paleolit davri xomashyodan foydalanish strategiyalari (Muzbel, Xatak va Angillak yodgorliklari materiallari asosida)" // Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – В. 18.
8. Окладников А.П. Неандертальский человек и следы его культуры в Средней Азии (Предварительные данные и выводы о раскопках в гроте Тешик-Таш) // СА. Вып. 6. М., 1949. – С. 14; Ташкенбаев Н.Х., Сулайманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Заравшана. Ташкент, 1980. – С. 76.
9. Ранов В.А., Несмейнов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. Душанбе, 1973. – С. 94.
10. Bordes F. L'industrie moustérienne de Teshic-Tash. Affinites et age probable. L'Anthropologie. T.59. №3-4. – Р. 46.
11. Громова В.И. Плейстоценовая фауна млекопитающих из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М., 1949. – С. 99.
12. Jobere J. Moustérienne en Europe. Paris, 2001. – Р. 36.
13. Окладников А.П. Амир-Темир новый памятник каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) // КСИИМК. Вып. 28. 1940 в. – С. 67; Окладников А.П. Амир-Темир новый памятник каменного века в горах Байсун-Тау (Узбекистан) // КСИИМК. Вып. 28. 1940 в. – С. 68.
14. Береговая Н.А. Палеолитические местонахождения СССР. МИА. № 81. 1960. – С. 42; Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М. 1949 а. – С. 70.
15. Ранов В.А., Несмейнов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973. – С. 64-66.
16. Насриддинов Х.К. Грот Оби Раҳмат // ИМКУ. Вып. 5. 1964. – С. 7; Сулайманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. Ташкент. 1972. – С. 98; Ранов В.А., Несмейнов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973. – С. 13.
17. Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулайманов Р.Х., Алимов К., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Исследования грота Оби Раҳмат (Республика Узбекистан) в 1999 г.

// Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Изд-во ИАЭТ СО РАН, Новосибирск. 1999. – С. 44-66. Деревянко А.П., А.И. Кривошапкин, А.А. Анойкин, У.И. Исламов, Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Сайфуллаев Б.К. Ранний верхний палеолит Узбекистана: Индустрия грота Оби Раҳмат (по материалам слоев 2-14) // Археология, этнография и антропология Евразии 4 (8). Новосибирск. 2001. – С. 144. Деревянко А.П., Анойкин А.А., Кривошапкин А.И., Милютин К.И., Исламов У.И., Сайфуллаев Б.К. Новые данные о палеолитических индустриях пещеры Пальтау (Республика Узбекистан) // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во Института археологии и этнографии СО РАН. Новосибирск. 2002. – С. 124. Деревянко А.П., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Исламов У.И., Сайфуллаев Б.К. Исследование грота Оби Раҳмат (Республика Узбекистан) // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во Института археологии и этнографии СО РАН. 2002. – С. 44. Деревянко А.П., Исламов У.И., 2003. Деревянко А.П., Исламов У.И., Новосибирск. 2004. – С. 158.

18. Vandermeersch B. Dictionnaire de la Préhistoire. Universitaires de France, Paris, 1988. – Р. 61 et 516.

19. Сулейманов Р. Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 6.

20. Muhammadiев A.G'. "O'rta paleolit davri xomashyodan foydalanish strategiyalari (Muzbel, Xatak va Angillak yodgorliklari materiallari asosida)" // Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – В. 14-15.

21. Сулейманов Р. Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 77, 85, 88, 96.

22. Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердиев Т.Н. Домусьтерские культуры на территории Узбекистана //Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992. – С. 38-49.

23. Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердиев Т.Н. Домусьтерские культуры на территории Узбекистана //Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992. – С. 38-49.

24. Muhammadiev A.G'. "O'rta paleolit davri xomashyodan foydalanish strategiyalari (Muzbel, Xatak va Angillak yodgorliklari materiallari asosida)" // Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – В. 15.

25. Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана // Дисс. на соис. докт. ист. наук. Новосибирск, 1990. – С. 109.

26. Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана // Дисс. на соис. докт. ист. наук. Новосибирск, 1990. – С. 110-113.

27. Лев Д.Н. Древний палеолит в Аман-Кутане. (предварительное сообщение). Самарканд. 1949. -С. 12. Лев Д.Н. Древний палеолит в Аман-Кутане. (Исследования 1953-1954 гг.) // Труды Узбекского го-С. Ун-та. Нов. серия. Вып. 61. 1956. – С 45.

28. Бибикова В.И. Некоторые замечания по фауне из мустерьской пещеры Аман-Кутан // СА. № 3. 1958. – С. 12.

29. Лев Д.Н. Поселение древнекаменного века в Самарканде. Исследования 1958-1960 гг. // Труды самаркандского государственного университета. Новая серия. – Самарканд, 1964. – Вып. 135; Д. Н. Лев Археологические исследования Самаркандского государственного университета в 1955-1956 гг. //Труды Самаркандского Государственного университета им. Алишера Навои. Вып. 101. Самарканд, 1960. – С. 10; Лев Д. Н. Дреаный палеолит в Аман-Кутане (предварительное сообщение) //Труды Самаркандского Государственного университета им. Алишера Навои. Вып. 39. Самарканд, 1949. – С. 42.

30. Ташкенбаев Н.Х. Новые памятники древнекаменного века в Самаркандской области // ОНУ. № 11. 1971. – С. 16.

31. Ташкенбаев Н.Х. Новые памятники древнекаменного века в Самаркандской области // ОНУ. № 11. 1971. – С.12. Ташкенбаев Н.Х. Исследование новой мустерьской стоянки Кутурбулак (Самаркандская область) // Каменный век Средней Азии и Казахстана. Ташкент. 1972. – С. 146. Ташкенбаев Н.Х. О новых памятниках эпохи палеолита на территории Самаркандской области // УСА. Вып. 2. 1972а. – С. 11. Ташкенбаев Н.Х. Новая палеолитическая стоянка Кутурбулак // ИМКУ. Вып. 10. 1973. – С. 23.

32. Muhammadiev A.G'. "O'rta paleolit davri xomashyodan foydalanish strategiyalari (Muzbel, Xatak va Angillak yodgorliklari materiallari asosida)" // Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – В. 11, 16.

33. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р. Х. Культура доевнекаменного века долины Зарабшана. Ташкент. Фан. 1980. – С. 11, 20-21.

34. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р. Х. Культура древнекаменного века долины Зарабшана. Ташкент. Фан. 1980. – С. 54-56.

35. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р. Х. Культура древнекаменного века долины Зарабшана. Ташкент. Фан. 1980. – С. 36-38.

36. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р. Х. Культура доевнекаменного века долины Зарабшана. Ташкент. Фан. 1980. – С. 73.

37. Гречкина Т. Ю., Ташкенбаев Н. Х. К вопросу о кварцевых изделиях Кутурбулака (3 слой) // ИМКУ. – Ташкент. 1990. №23. – С. 130-139.; Сайфуллаев Б.К. Роль сырье в развитии техники обработки камня в Кутурбулаке // ИМКУ. – Ташкент. 2008. №36. – С. 10-14.

38. Сайфуллаев Б. К., Палеолит долины р. Зарабшан и Северо-Восточных Кызылкумов (технико-типологическое исследование). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Самарканд. 2002. – С. 13-15.

TARIX

39. Сайфуллаев Б. К., Палеолит долины р. Зарафшан и Северо-Восточных Кызылкумов (технико-типологическое исследование). Диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Самарканд. 2002. – С. 47-48.
40. Виноградов А. Б. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья.. М. Наука, 1981. – С. 46. Брунет Ф., Хужаназаров М.М., Сайфуллаев Б.К. Среднепалеолитическая мастерская Кукча в Кызылкумах // Научный отчет о работе Франко-Узбекской археологической экспедиции в 2005 г в Акчадарье. Самарканд, 2006. – С. 41-65.
41. Jobere J. Moustérienne en Europe. Paris. 2001. – Р. 36.
42. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. 1980. – С. 16.
43. Shymczak et al. Kuturbulak Revisited. A middle Paleolithic Site in Zeravshan River valley, Uzbekistan. Central Asia // Prohistoric Studies, vol. 1, 2000. – Р. 135.
44. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. 1980. – С. 171.
45. Сайфуллаев Б.К. Палеолит долины реки Зарафшана и Северо-Восточных Кызылкумов. Автореф. Канд. Дис-С. Самарканд. 2003. – С. 17.
46. Касымов М.Р. Поблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана. Автореферат докт. Дисс. Новосибирск. 1990. – С. 13. Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973. – С. 94.
47. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. Ташкент. 1980. – С. 14.



УО'К: 94+950

FARG'ONA VODIYSIDA SEVINCHXOJAXON VA SULTON SAIDXON KURASHI**БОРЬБА СУЛТАНА САИДХАНА ПРОТИВ СЕВИНЧХУДЖАХАНА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ****THE STRUGGLE OF SULTAN SAIDKHAN AGAINST SEVINCHKUJAKHAN IN FERGHANA VALLEY****Nishonov Abdurashid Abdurasulovich** 

Farg'ona davlat universiteti, PhD

Annotatsiya

XVI asrda Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Qoshg'ar va Eron hududlarida bo'lib o'tgan tarixiy voqealarga oid ko'plab tarixiy manbalar mavjud. Ularda biz o'rganayotgan Farg'ona vodiysining Shayboniyalar davri tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Maqolada tadqiq etilayotgan mavzuni o'rganishda tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarga tayanildi. Mualliflarining hikoya qilinayotgan voqealarga qay darajada aloqadorligi hamda ularning shaxsiy qarashlaridan kelib chiqib, tarixiy manbalarga tanqidiy yondashildi. Manbalardagi ma'lumotlarni mantiqiy jihatdan bog'lash jarayonida qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi. Tarixiy voqealarning mintaqalararo bog'liqlikda rivojanishidan kelib chiqib, ilmiy farazlar bildirildi.

Аннотация

Существует множество исторических источников об исторических событиях, произошедших в XVI веке в Моваруннахре, Даши Кипчаке, Хорасане, Кашире и Иране. Они содержат ценные сведения об истории изучаемой нами эпохи Шайбани в Ферганской долине. При изучении исследуемой в статье темы использованы исторические источники и научная литература. К историческим источникам подходили критически, исходя из степени соответствия их авторов рассказанным событиям и их личных взглядов. В процессе логической связи информации в источниках использовался метод сравнительного анализа. На основе развития исторических событий и явлений в межрегиональных отношениях были высказаны научные гипотезы.

Abstract

There are many historical sources about the historical events that took place in the 16th century in Movarounnahr, Dashti Kipchak, Khorasan, Kashgar and Iran. They contain valuable information about the history of the Shaibani era of the Ferghana Valley that we are studying. Historical sources and scientific literature were used in the study of the topic under investigation in the article. Historical sources were critically approached based on the degree of relevance of their authors to the narrated events and their personal views. The method of comparative analysis was used in the process of logically connecting the information in the sources. Based on the development of historical events and phenomena in interregional relations, scientific hypotheses were expressed

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, Sulton Saidxon, Bobur, "Boburnoma", SHayboniyxon, Jonibek Sultan, Sevinchxojaxon, "Tarixiy Rashidiy", Aksi, Qosimxon, "Oshtin qozoq".

Key words: Ferghana valley, Sultan Saidkhan, Babur, "Baburname", Shaybonikhan, Jonibek Sultan, Sevinchjakhon, "History of Rashidiy", Aksi, Kosimkhan, "Oshtin Kazak"

Ключевые слова: Ферганская долина, Султан Саидхан, Бабур, «Бабурнаме», Шайбонихан, Джонибек Султан, Севинчхакон, «История Рашидий», Ахси, Косимхан, «Оштин Казак».

KIRISH

XVI asr boshlari Farg'ona vodiysida bo'lib o'tgan tarixiy voqealar Zahiriddin Muhammad Boburni "Boburnoma", Kamoliddin Binoyni "Shaybonynomma", Muhammad Solihni "Shaybonynomma", Mirzo Muhammad Haydarni "Tarixi Rashidiy", Muhammadyor ibn Arab Qatag'anni "Musaxxir al-bilod", Hofiz Tanish al-Buxoriyni "Abdullanoma" kabi tarixiy manbalarda qisman bayon qilingan.

Sabohat Azimjonovaning "К истории Ферганы второй пол XV век", Bo'riboy Ahmedovning "Tarixdan saboqlar", Akbar Zamonovning "Buhoro xonligida qo'shin tuzilishi va harbiy boshqaruv", Dilorom Alimovaning "История Узбекистана (XVI-первая половина XIX в)", Sayfuddin Jalilovning

TARIX

“Bobirning Farg’ona davlati”, Dilorom Yusupovaning “Farg’ona vodiysining XVI-XVIII asrlar davri tarixiga oid qo’lyozma asarlari”, Branko Soucek, Svat Soucek’s “A history of inner Asia”, Rene Groussetning “The Empire of the Steppes a History of Central Asia” Abdurashid Nishonovning “Sulton Saidxon hukmronligi davrida Farg’ona davlati” kabi asarlар va ilmiy maqolalarda Farg’ona vodiysi tarixiga oid ma’lumotlar mavjud. Yuqorida manba va adabiyotlarda qayd etilgan ma’lumotlarni tahlil qilib Farg’ona vodiysida shayboniy sultonlardan biri bo’lmish Sevinchxo’jaxon va Sulton Saidxon kurashini tadqiq qildik.

Farg’ona vodiysida Zahiriddin Muhammad Bobur mirzo va Jahongir mirzolar o’tasida hokimiyat uchun kurash, keyinchalik temuriy mirzolar va yirik amirlarning o’zaro nizolariga aylandi. Nizolar oqibatida Farg’ona vodiysida hokimiyat vodiyning yirik amirlaridan biri Axmad Tanbal qo’liga o’tdi. Bobur mirzo Samarqandni Shayboniyxonga boy bergach, tog’alari Toshkent xoni Sulton Mahmudxon va Mo’g’uliston xoni Sulton Ahmadxonlar yordamida Farg’onadagi hokimiyatini tiklashga xarakat qildi. Axmad Tanbal Farg’onada hokimiyatni saqlab qolish uchun Shayboniyxonidan yordam so’raydi. Shayboniyxon yordamida Farg’onada xukmdor bo’lib olgan Axmad Tanbalning xukmronligi ham uzoq davom etmay, Farg’ona vodiysida Shayboniyxon hukmronligi o’rnatildi. Mavarounnahrda bo’lgani kabi Shayboniylar sulolasining Farg’ona vodiysisidagi xukmronligida ham qisqa muddatli tanaffus bo’lgan. Bu qisqa muddatli tanaffus Sulton Saidxon nomi bilan bog’likdir.

NAZARIY, MUXOKAMA

Sulton Saidxon Bobur mirzoning tog’asi Sulton Axmadxonning o’g’li edi. Sulton Axmadxonning o’n sakkiz nafar o’g’li bo’lib, Mansurxon va Iskandar sultondan so’ng uchinchi o’g’li Sulton Saidxondir. Shayboniy sultonlarga qarshi yurishda akasi Toshkent hokimi Sulton Mahmudxonga yordam berish uchun 1503 yil Sulton Ahmadxon Mo’g’ulistonidan katta qo’shin bilan yordamga keldi. Mo’g’uliston taxtiga katta o’g’li Mansurxonni qo’yib, o’zi bilan birga ikki o’g’li Sulton Saidxon va Bobojoq sultonlarni Toshkentga olib keldi. Zaxiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida Sulton Saidxon bilan Toshkentda uchrashganida uni o’n to’rt yosh bo’lganligini qayd etib o’tgan [6: 96 - b]. Ikki xon va Bobur ittifoqidagi qo’shinlar Aksi yaqinida Shayboniy sultonlar hususan Sevinchxo’jaxon qo’shini bilan bo’lib o’tgan jangda mag’lubiyatga uchrashdi. Jangda ishtirok etgan Sulton Saidxon yaralanib, Aksi hokimi Shayx Boyazidga asir tushdi. Shayx Boyazid Sulton Saidxonni bir yil qamoqda saqladi. 1504 yil Shayboniyxon, unga xiyonat qilgan Farg’onadagi Axmad Tanbal va uning aka-ukalariga qarshi yurish qilib Farg’ona vodiysini qo’lga kiritdi. Shayboniyxon o’ziga xiyonat qilgan Ahmad Tanbal va uning yaqinlarini qatl etishni buyurdi [4: 245 - b].

Shayboniyxon Farg’ona vodiysini qo’lga kiritgach, bu yerni shayboniy sultonlarda bo’lmish Jonibek Sultonga suyurg’ol qilib bergan. Muhammadyor ibn Arab Qatag’an “Musaxxir al-bilod” asarida Andijon Mahmudshoh Sultonga, Aksi esa Jonibek Sultonga topshirilganligini qayd etgan [2: 88 - b]. Lekin, Muhammad Solih va Haydar mirzolarning asarlaridan Farg’ona vodiysi to’liq Jonibek Sultonga in’om etilgani ma’lum [4: 245-b; 3: 243-b]. Jonibek Sulton Shayboniyxonning amakisi Xoja Muhammad Sultonni o’g’li ya’ni, amakivachchasidir [11: 142-b].

Jonibek Sulton Axsida zindonda yotgan Sulton Saidxonni Shayboniyxon yoniga jo’natdi. Shayboniyxon yurishlardada Sulton Saidxonni o’zi bilan birga olib yurganligini, Termiz yaqinida chopar kelib Shayboniyxonning ukasi Mahmud sulton Qunduzda vafot etganligini aytgan vaqtida uni yonida ekanligidan bilib olishimiz mumkin. Mahmud sulton tobutini ko’rib Shayboniyxonni yuzi o’zgarmaganidan xayratlanadi. Uning qaxri qattiqligini ko’rgan Sulton Saidxon Shaybonixon yonida qolish juda xatarli ekanligini anglab, xizmatidagi 16 nafar odamlari bilan Samarqanddan Xutuk yo’li orqali Mo’g’ulistoniga qochadi [3: 261-b].

Shayboniyxonidan yengilgan Sulton Mahmudxon Mo’g’ulistoniga kelgan va Sulton Ahmadxon vafotidan so’ng Mo’g’ulistonida hokimiyatni o’z qo’liga olgan edi. Sulton Saidxonni Mo’g’ulistoniga kelishi, Sulton Mahmudxon hokimiyatiga xavf tug’dirardi. Otasidan qolgan taxtga davogar bo’lishidan cho’chib Sulton Mahmudxon Sulton Saidxonga qarshi kurashadi. Jangda engilgan Sulton Saidxon qirg’izlarga boshchilik qilayotgan ukasi Sulton Halil yoniga boradi.

1504 – 1509 yillarda Mo’g’ulistonida Mo’g’ul xonlari va shahzodalar o’tasida janglar nixoyatda kuchayib ketdi. Janglarda mag’lub bo’lgan Sulton Mahmudxon Shayboniyxon yoniga boradi. Shayboniyxon uni qatl ettirdi. 1509-yil hokimiyatni egallagan Mansurxon ukalari Sulton

Saidxon va Sulton Halillar ustiga yurish qilidi. Aka ukalar o'rtasidagi jang Almatuda bo'lib o'tdi [3 : 262-b]. Jangda yengilgan Sulton Xalil amakisi orqasidan shayboniy sultonlar xomiyligidan umid qilib Farg'onaga qochdi. Axsida Jonibek Sulton uni tuttirib Aksi daryosiga cho'ktirdi. Almatudagi mag'lubiyatdan so'ng Sulton Saidxon omon qolgan ellikka yaqin kishilar bilan Do'langa keldi. Do'landa bir guruhi o'sha vaqtida Qoshg'ar hukmdori Abobakr mirzoning odamlari uni o'dirmoqchi bo'lishdi. Ularni taqibidan qochib amakisi va ukasi ortidan Sulton Saidxon ham Farg'onaga qochdi. Mirzo Haydar o'zining "Tarixi Rashidiy" asarida ushbu voqeani quydagicha yoritadi – "Shohibekxonning tabiatini bilmagan odamgina uning marhamatiga ko'z tutishi mumkin, buning biladigan odamlar bu rejani qanchalik rad qilishmasin, o'z miyalari singdirgan puch taxminlar tufayli undan voz kechishmadi. Menda ham ularga qarshi yuzlab e'tirozlar bor edi, chunki men Shohibekxon yonida o'tkazgan bir yil davomida uning butun xususiyatlarini, sultonlarning va amirlarining fe'l-atvorlari niyatlarini yaxshigina o'rganib olgan edim. Uning nimalar qilgani va nimalar qilishi mumkinligi menga ayon edi. Shularni manabu odamlarga qancha tushuntirmayin, ular bunga rozi bo'lishmadi va: "Boshqa nima ham qila olamiz? Har qanday taklif – bemanilik. Bunda yaxshi narsalarga umid bog'lash mumkin. Agar muborak miyangizda boshqa biror fikr tug'ilsa, aytin, chunki barcha ishlarda sizga jon-jon deb itoat qilamiz" deyishdi" [3 : 271-b].

Sulton Saidxon Farg'onaga yo'l olganida u erda shayboniy sulton Jonibek hokimlik qilar edi. Jonibek Sulton Andijonni Shayboniyxonning ishonchli odamlaridan biri Xoja Ali bahodirga bergen, Xoja Ali baxodir Jonibek Sulton xuzurida otaliq lavozimida xizmatda edi.

1508 yil Andijon yaqinidagi Sulotkandga etib kelgan Sulton Saidxon amakisi va ukasini Shayboniy sultonlar tomonidan qatl qilinganligidan xabardor bo'ladi. Xoja Ali baxodir Sulton Saidxon va uning odamlarini tutib, Andijon arkiga qamab qo'yadi [3: 332-b].

Jonibek Sulton otdan yiqilib aqli zaif bo'lib qolgan, uni aytgan gapi qilgan ishiga mos kelmadni edi. Xoja Ali baxodir Axsiga chopar yuborib, ortidan Sulton Saidxonni Jonibek Sulton xuzuriga jo'natadi. Axsiga bir farsax qolganida Haydar Xarsuvor kelib Jonibek Sulton uni ozod qilganini va bu haqidagi farmonni Dusmuhammad Ali cho'loq olib kelayotganini aytadi [3: 334-b]. Sulton Saidxonni olib kelayotgan askarlarga Dusmuhammad Ali cho'loq Jonibek Sultondan xat olib kelib, asirni Xoja Ali bahodir xuzuriga olib borishlari kerakligini aytadi. Sulton Saidxonni askarlar Andijonga qaytarib olib kelishadi. Xatni olgan Xoja Ali bahodir Sulton Saidxon ozod qilinganligi va u qayerga xoxlasa o'sha yerga borishi mumkunligi aytadi. Oradan bir kun o'tib Axsidan Olloberdi yasovul farmon olib keladi, bu farmonda Jonibek Sulton zudlik bilan Sulton Saidxonni qatl qilish kerakligi buyurilgan edi [3: 335-b]. Xoja Ali bahodir buyruqqa bo'ysunmay Sulton Saidxonni Qoir Tegin yo'liga solib qo'yib yuboradi. Hamroxlari bilan xon yo'ldan adashib ortga qaytishga majbur bo'ldi. Andijonda Xoja Ali baxodir ularni biroz ushlab turib, ishonchli odamlari bilan birga keyiroq Qal'ai Zafarga Mirzoxon xuzuriga jo'natadi. Qal'ai Zafarda o'n sakkiz kun turib Qobulga tog'avachchasi Bobur Podshoh huzuriga ketadi. [3: 335-b]

Sulton Saidxon otasi vafotidan keyin ikki marta Shayboniylar qo'liga asir tushgan va har safar omon qolishga erishib, oxir oqibat Qobul shahriga Bobur mirzo xuzuriga qochib boradi. Akademik V.V. Bartold Sulton Saidxonni Bobur mirzo xuzuriga 1508-yili yetib kelganligini ta'kidlagan [1: 513-b]. Shayboniyxonning 1510-yili Marv shaxri yonida Eron shoxi Ismoil bilan bo'lgan jangda xalok bo'lishi, Farg'ona vodiysida ham shayboniylarga karshi kurash boshlanishiga olib keldi. Shayboniyxon qozoq dashtlariga yurishi davrida Farg'ona mulklarini Jonibek sultondan tortib olib, Toshkent hokimi bo'lgan amakisi Sevinchxo'jaxonga bergen edi. Vodiyning Sevinchxo'jaxonga berilishi Shayboniylar davlatining shimoli-sharqi hududlaridan bo'ladigan xavfni bartaraf etishi zarur edi. Lekin Shayboniyxon xalokati natijasida Movarounnahrga chekingan shayboniy sultonlar hususan bu davrida Farg'ona vodiysini boshqargan Sevinchxo'jaxonning ham [2: 326-b] Samarkandda ekanligi vodiyya qo'zg'alol boshlanishiga qulay sharoit tug'diradi. Bobur mirzoning Movarounnaxrga ehtimoliy xujumidan xavfsiran shayboniy sultonlar 1511-yilning erta baxorida Samarkandda yig'ilgan edi.

Malumki, mo'g'ul xoni Sulton Maximudxonning Toshkent va Shoxruxiyadagi xukmronligiga Shayboniyxon tomonidan barham berilgach, mag'lub mo'g'ul lashkarning katta qismi shayboniylar qo'shini safini to'ldirgan edi. Shayboniyxon vafot etgach, ularning bir qismi ona tomonidan mo'g'ullarning ulug' xoni Yunusxonning nabirasi bo'lmish Bobur mirzo tomoniga o'tib ketadi. Bu esa shayboniy sultonlarda mo'g'ullarga nisbatan ishonchszlik keltirib chiqaradi. Natijada ular

TARIX

mo'g'ullarni kirg'in qila boshlaydilar. Omon kolgan mo'g'ullarning katta qismi Bobur mirzo xuzuriga, yana bir qismi esa o'z oilalari joylashgan Farg'ona vodiysiga qochib borishadi. Shayboniy sulton Jonibekning ruxsati bilan Farg'ona vodiysiga qaytishga erishgan mo'g'ullarning yirik amirlaridan biri Said Muhammad mirzo keyinchalik vodiydagagi shayboniylarga qarshi kurashga raxbarlik qiladi [3: 317-b]. Qo'zgolonchilar, bu vaqtida Xisorga yurish kilishga tayyorlanayotgan Bobur mirzoga yordam so'rab murojaat qidadilar. Haydar mirzo Farg'onadan kelgan xabarning mazmunini ham keltirib o'tgan: "Farg'ona viloyati o'zbeklardan tamoman ozod **bo'ldi** va sizning yxtiyorizingizga o'tdi, bu o'zbeklar ishining barham topgani va Mavarounnaxrning ozod bo'lishining boshlanishidir. Shu jixatdan siz nima desangiz biz bajaramiz" [3: 355-b].

Bobur mirzo esa o'z asarida Farg'ona vodiysidagi shayboniylarga qarshi ko'tarilgan g'alayon xaqida so'z yuritar ekan, unda mo'g'ullarning ishtirokiga e'tibor qaratmaydi. "Shox Ismoil Shayboniyxonni Marvda olg'onda Kunduzgakim, o'ttum, - deb yozadi Bobur mirzo, - Andijon viloyati mening sari boqib, ba'zi dorug'alarni kavlab, ba'zi erlarni berkitib, manga kishi yubordilar. Men Sulton Saidxonga bori navkarlarimni topshurub, ko'mak qo'shub, zodu bud Andijon viloyatini bag'ishlab, xon kilib yubordim" [5: 180-b]. Garchi Bobur mirzo mo'g'ullar haqida fikr bildirmasa-da, mo'g'ul xoni Sulton Saidxonni yordamchi qo'shinga raxbar sifatida Farg'ona vodiysiga xon qilib yuborishining sabablari bir tomonidan mo'g'ullarning vodiydagagi g'alayonlarga raxbarlik qilgani bilan bog'lik bo'lsa kerak.

Bu vaqtida Boburiy qo'shining kattagina qismini ham mo'g'ullar tashkil etar va mazkur sharoitda mo'g'ul xonzodasi Sulton Saidxonning xizmatda ekanligi ma'lum bir siyosiy beqarorlikka sabab bo'layotgan edi [3: 358-b]. Bobur mirzo Sulton Saidxonni Farg'ona vodiysiga yordamga jo'natishga qaror qilishining ikkinchi sababini shu bilan ham qo'shimcha izohlash mumkin. Bu qaror bilan Bobur mirzo shayboniylar lashkarining e'tiborini Farg'ona vodiysiga tortishga erishadi. Shuningdek, o'z qo'shinidagi barqarorlikni ham saqlab qola bildi.

Haydar mirzoning ta'kidlashicha, Sulton Saidxon 1511-yilning 13-may kuni Bobur mirzodan ajralib, Farg'ona vodiysi tomon yo'lga chiqqan. Bundan ko'rindiki, Farg'ona vodiysida shayboniylarga qarshi xarakat 1511-yilning mart-aprel oylaridan boshlangan va ma'lum bir natijalarga erishgan edi. Sulton Saidxonning yetib kelishi bilan esa butun vodiyda uning xukmronligi o'rnatiladi. V.V.Bartold ham Sulton Saidxon 1511-yili Bobur mirzo tomonidan Farg'ona vodiysiga jo'natilganligini ta'kidlagan [1: 512-b].

Ma'lumki, 1511-yilning mart-aprel oylarida Bobur mirzo ham Xisor tomonga yurish boshlaydi [3: 359-b]. Bobur mirzoning aynan shu yurishi Farg'onadagi harakatning boshlanishiga turki bo'lgan bo'lsa, ajab emas. Garchi, Hofiz Tanish Buxoriy, Muhammadyor ibn Arab Katag'anlar o'z asarlarida bu xaqida qayd etmasalar-da [2: 326], Haydar mirzoning talqiniga ko'ra, Bobur mirzoning mazkur yurishi natijasiz tugab, u yana ortiga qaytgan [3: 354-b]. Natijada shayboniylar ham o'z kuchlarini uchga bo'ladilar. Hamza Sulton, Maxdi Sulton va Shayboniyxonning o'g'li Temur Sultonlar boshchiligidagi lashkar Xisorga Bobur mirzoga qarshi yurish boshlaydi, Ubaydullaxon esa Qarshi shahrida qolib, Mavarounnaxr markazini janubdan himoya qilishga qaror qiladi. Sevinchxo'jaxon ham bir necha shayboniy sultonlar bilan Farg'ona vodiysini qaytarib olish uchun kurash boshlaydi. Shayboniylar lashkari dastlab Sirdaryoning shimoliy qismini zabt etishga qaror qiladi.

Bu Sirdaryoning shimolida joylashgan Aksi qal'asining ma'muriy va harbiy jixatdan mavqeyi bilan bog'liq bo'lsa kerak, chunki Shayboniyxon davrida Aksi shahrining yana vodiyning ma'muriy markazi sifatida ahamiyati ortib borgan. Tarixiy manbalarda Jonibek Sulton Farg'ona vodiysini Aksi shaxridan turib boshkarganligi qayd etilgan [2: 91-b]. Bu vaqtida u o'z ma'muriy markazining mudofaa qobiliyatini mustahkamlash choralarini ko'rganligi ham tabiiy, albatta. Shuning uchun ham Sevinchxo'jaxon vodiydagagi mulkinining markazi bo'lmish Axsini tezroq qo'lga kiritishni maqsad qilgan.

Shayboniylar dastlab Sirdaryoning shimoliy qismida joylashgan qal'alardan Kosonni egallashga qaror qiladilar. Ularning lashkari Koson qal'asini xujum bilan egallay olmagach, qamal qilishga kirishadi. Sulton Ali mirzo va Tubra nuyag'ut boshchiligidagi qal'a ximoyachilari mardanavor kurash olib boradilar. Sulton Saidxonning qal'adagilarni qo'llab quvvatlash borasidagi xarakatlari ham oz bo'lsada, o'z samarasini beradi. "Koson qal'asining axvoli xaqidagi xabar xonga etgach, - deb yozadi Haydar mirzo, Koson tog'lariga barcha lashkarboshilarini jo'natdi. Garchi ular

o'zbeklarni qo'rqtish darajasidagi kuch-qudratga ega bo'lmasalarda, dushman lashkarlarining ayrim qanotlariga xujum qilish bilan ularni tashvishga soldilar va Koson xalqi bundan ancha ruxlandi" [3: 364-b]. Lekin shunga qaramay shayboniylar qo'shini qal'ani egallash uchun tinimsiz xujum qilib turadilar. Jang taqdirini esa Sevinchxo'jaxon boshliq shayboniy lashkarlari qal'ani egallash uchun ko'rgan tadbirlari hal qiladi. Manbalarda xujum qiluvchi tomon Koson qal'asi devorlari ostini teshib o'tganliklari, narvon orqali devor ustiga chiqib olganliklari ximoyachilarning qarshiligini to'xtashiga sabab bo'lganligi aytildi. Shundan so'ng ximoyachilar qal'ani tashlab chiqqanlar. Bizningcha, qal'ani topshirilishiga Farg'ona vodiysining sharqida bo'layotgan vokealar ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Koson uchun shiddatli janglar ketayotgan vaqtida Farg'ona vodiysining sharqiy qismiga Qoshg'ar hokimi Abobakr mirzo ham bostirib kirdi. Bu uning Farg'ona vodiysini egallash maqsadidagi ikkinchi urinishi bo'lib, birinchisi Umarshayx mirzo vafot etgan vaqtida **bo'lib** o'tgan edi [3: 363-b]. Barcha kuchlarning shayboniylarga qarshi jo'natilganidan samarali foydalangan Abobakr mirzo qiyinchiliksiz O'zgand, O'sh va Modu qal'alarini qo'lga kiritadi. Haydar mirzo Abobakr mirzoni atigi ikki-uch ming kishilik qo'shin bilan kelganligini qayd etgan [3: 364-b]. Lekin bu ma'lumot biroz shubxali. Chunki, uchta muxim qal'ani egallanganligi, shuningdek, Haydar mirzoning o'zi ham keyinchalik asir olingen qoshg'arliklarni sonini uch mingga yaqin ekanligi xaqidagi ma'lumot qoldirganligi shundan dalolat beradi.

Vodiy sharqidagi uchta qal'ani egallab olgan Qoshg'ar qo'shini Andijon shahrini ham zabit etish uchun yurish boshlaydi. Andijondan 3-4 kilometr masofa narida to'xtagan qoshg'arliklarni qal'ani xujum bilan egallash uchun jiddiy tayyorgarlik ko'radilar. Sulton Saidxon ham zudlik bilan Kosondagi lashkarini ortga qaytarishga qaror qiladi. Lekin shunga qaramay Abobakr mirzoning g'alabalari va Andijonni egallash uchun jiddiy tayyorgarlik ko'rayotganligi vodiy axolisi hamda Sulton Saidxonning saroyida ham katta vaxima tug'diradi. Haydar mirzo Qoshg'ar qo'shinining mukammal qurollanganligini bayon qilarkan, quyidagilarga alovida to'xtaladi: "Andijonday yirik qal'ani ikki-uch ming kishilik lashkar bilan olish mumkin bo'lmagani bois, uni egallash uchun avval manjanik (toshotar kurol), narvon singari asboblarni xozirladi. Buning xabari Sulton Saidxonqa yetgach, uni hamda Andijon axolisini qattiq vaxima chulg'adi" [3: 364-b].

Lekin, Koson uchun janglarda katnashgan qo'shining Andijon himoyasi uchun yetib kelishi vaziyatni o'zgartiradi. Yordamga yetib kelgan kuchlarning ta'siri shunchalik katta bo'ladiki, Farg'ona lashkari Andijon qal'asini himoya qilish uchun shahar tashqarisiga chiqishga jur'at etadi. Andijon shahri yaqinidagi Tutluq mavzeyida bo'lgan jangda Qoshg'ar lashkarlari to'liq tor-mor keltiriladi. O'sh, O'zgand shaharlari va Modu qal'asi ham Abobakr mirzo bosqinidan ozod qilinadi. Aynan shu g'alaba Farg'ona vodiysidagi siyosi va xarbiy vaziyatga katta ta'sir qildi.

Koson qal'asini egallagan Sevinchxojaxon lashkarlari o'z yurishlarini davom ettirishga jur'at etmaydilar. Tutluqdagi g'alabadan keyin Sulton Saidxonning o'zi ham lashkarning asosiy qismi bilan shayboniylar qo'shini turgan Kosonga yaqin bo'lgan Aksi qal'asiga borib joylashadi. Haydar mirzo ham "Tarixi Rashidiy"da Sulton Saidxon Andijonda Said Muhammad mirzoni qoldirib, o'zi Aksi shaxriga jo'naganligini ta'kidlagan [3: 383-b]. Ko'p o'tmay Bobur mirzo tomonidan Xisorda shayboniy sultonlar lashkarining mag'lub etilganligi haqidagi xabar yetib keladi. Ushbu xabar ta'sirida vodiydagisi Sevinchxojaxon qo'shini Toshkentni qaytarib olish uchun shimolga harakatlanishga qaror qiladi. Natijada Farg'ona vodiysida shayboniylar hukmronligiga vaqtinchalik chek qo'yilib, hokimyat 1511-yilning yoziga kelib to'liq Sulton Saidxon qo'liga o'tadi.

Farg'onada tashkil topgan Sulton Saidxon davlati Samarcand hukmdori Bobur mirzoning oliy hokimyatini tan olgan edi. Haydar mirzo ham Sulton Saidxon Farg'ona vodiysida mustahkamlanib olgach, vodiydagisi shayboniylarga qarshi kurashning tashkilotchisi Said Muhammad mirzoni Samarcandga Bobur mirzo huzuriga elchi qilib yuborganligini qayd etgan. Muallifning so'ziga qaraganda elchilik 1511-1512 yillarning qish faslida amalga oshgan bo'lib, unda muhim davlat ishlari hal etilgan. Bu davlat ishlarining asosiysi Shayboniylarga qarshi birgalikda kurashni davom ettirish masalasi ekanligini mulohaza qilish mumkin. Bobur mirzo ham o'z asari "Boburnoma"da bu elchilik haqida eslab o'tadi [5: 13-b].

1512-yilning bahorida shayboniy sultonlar Buxoro va Toshkent shaharlari tomon yurish boshlaydilar. Bobur mirzo o'zi qo'shining bir qismi bilan Buxoro tomon yo'lga chiqarkan, amir Qosim ko'hbur rahbarligidagi yana bir lashkarni Toshkentni himoya qilish uchun jo'natadi. Lekin,

TARIX

Buxoro shahrining g'arbidagi Ko'li Malik jangida Bobur mirzo qo'shini to'liq mag'lubiyatga uchraydi. Bobur mirzo dastlab Samarqandga, u yerdan esa Hisorga chekinishga qaror qiladi. Tarixiy manbalarda bu voqealarda Farg'ona vodiysi hokimi Sulton Saidxonning qay darajada ishtirok etganligi xususida ma'lumotlar mavjud emas. Toshkent shahri aholisining amir Qosim ko'hbur rahbarligida olib borgan mudofaa janglari batafsil hikoya qilgan "Tarixiy Rashidiy" asarining muallifi Haydar mirzo shahar himoyachilariga Sulton Saidxon tomonidan yordam berilganligi haqida ma'lumot bermaydi. Bundan ko'rindi-ki, Sulton Saidxon ushbu voqealarni kuzatish bilan cheklangan. Bu esa uning eng katta xatosi bo'lib, keyinchalik o'z davlatini yemirilishiga ham olib kelgan. Toshkent himoyachilar niolojlikdan shaharni tashlab chiqib, Farg'ona vodiysiga chekinishadi. Ular Sulton Saidxon saroyida uzoq qolmasdan, Hisorda o'z kuchlarini qaytadan jamlayotgan Bobur mirzo huzuriga borishni ma'qul ko'rishgan.

Toshkentni egallagan Sevinchxojaxon o'z yurishlarini Farg'ona vodiysi tomon davom ettirishi kutilgan edi. Lekin ba'zi voqealar bunga imkon bermagan. Birinchidan, Bobur mirzo tomonidan Sayram shahri hokimi etib tayinlangan amir Kattabek 1513-yilning bahoriga qadar qal'ani shayboniylargaga topshirmay, o'z qo'lida saqlab qoladi [3: 389-b]. Garchi Sevinchxoja boshliq shayboniy sultonlar Toshkent shahrini qo'lga kiritgan bo'lsalar-da, o'z ortlarida Sayramni qoldirgan holda vodiyya bostirib kirishlari amri mahol edi. Ikkinchidan, bu vaqtida Hisorda o'zini anchagina tiklab olgan Bobur mirzo, Shoh Ismoil yuborgan yordamga tayanib yana bir bor shayboniylargaga qarshi yurish boshlashi kutilayotgan edi. Bunday sharoitda Toshkentni zabit etgan shayboniylar qo'shini vaziyatni qanday rivojlanishini kutishga majbur bo'ldi.

Bobur mirzo lashkarining eronlik sarkarda amir Najm soniy qo'shini bilan birgalikdagi yurishiga qarshi kurashgan shayboniy sultonlar safida Toshkent shahrini zabit etgan Sevinchxojaxon nomi qayd etilmaydi. Bu esa boshqa tarixiy manbalarda keltirilmagan bo'lsa-da, "Tarixiy Rashidiy"da keltirilgan ma'lumot asosli ekanligini ko'rsatadi.[3: 383-b] ya'ni Haydar mirzo bu vaqtida Sulton Saidxon Sevinchxojaxon ustiga yurish qilganligini to'g'ri qayd etgan bo'lib chiqadi.

Sulton Saidxon Toshkentni egallagan shayboniylar qo'shinining to'xtab qolganligidan dadillanganligi sababli hamda Bobur mirzoning talabiga ko'ra Shayboniylargaga qarshi yurish boshlagan. Bobur mirzo Hisorda turgan vaqtida ham Sulton Saidxon bilan elchilar almashinib turganligi manbalarda qayd etilgan. Shu sababli Farg'ona qo'shinining shayboniylargaga qarshi yurishini o'zaro kelishib amalgalashishga qarshilik qilishimiz mumkin.

"Tarixiy Rashidiy"da yozilishicha, Sulton Saidxon lashkari bilan Sevinchxojaxon qo'shini o'rtasidagi jang Biskand mavzeyida bo'lib o'tgan [3: 383-b]. Bu hozirgi Toshkent viloyati xududida joylashgan Piskent shahri bo'lishi kerak. Chunki, o'sha davr tarixiy manbalaridan biri "Boburnoma"ning turli nuxsalarida bu mavzening nomi Piskent va Beshkent, tarjimalarida esa Biskand tarzida ham keltirilganligi ma'lum [5: 88-b]. Shuningdek, Biskand mavzeyi ham jang bo'lib o'tgan xududga mantiqan to'g'ri keladi. Bunday holatda Sulton Saidxon Toshkent vohasiga dovon orqali emas, balki Xo'jand shahri orqali kirib borganligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Biskand jangida Sevinchxojaxon boshliq shayboniylar g'alaba qozonadilar. Jangda yaralangan Sulton Saidxon o'z qo'shini bilan vodiya qaytadi va Bobur mirzo tomonidan olib borilayotgan janglarning natijasini kutishga majbur bo'ladi. Biskand jangi 1512-yilning sentyabr oyida yoki undan biroz avval bo'lib o'tgan. Chunki aynan shu sanada Sulton Saidxon huzuriga kelgan Haydar mirzo uning Biskand jangidan qaytib kelganligini ta'kidlagan edi.[3: 386-b]

Sevinchxojaxon ham Sulton Saidxonni ta'qib etib vodiya bostirib kirmaydi. Bunga yuqorida ta'kidlaganimizdek, Sayramni hamon zabit etilmaganligi va Bobur mirzoni Qarshi vohasidagi jangovar harakatlari sabab bo'lgan bo'lishi kerak.

1512-yilning 12-noyabr kuni esa Bobur mirzo va eronlik sarkarda Najm soniy lashkari G'ijduvon shahri yonida shayboniylar tomonidan to'la mag'lub etiladi [2:126-b]. Aynan mana shu mag'lubiyat Farg'ona vodiyidagi Sulton Saidxon davlati taqdirini ham belgilab beradi. G'ijduvondan yana Hisorga chekingan Bobur mirzo, ko'p o'tmay Kobulga qaytib ketadi. Bu esa uning Movarounnahrdan butunlay voz kechganligini bildirar edi.

Bunday vaziyatda Sulton Saidxon imkon qadar vodiydagi o'z davlatini saqlab qolishga intildi. Unga tashqi siyosiy vaziyat ham bir muncha qo'l kelganligini ta'kidlash joiz. Shoh Ismoilning amir Najm soniy halokati uchun qasos olishidan cho'chigan shayboniylar o'z lashkarlarining asosiy qismini Eron bilan chegaralarda saqlashga majbur bo'lischdi. Shuningdek, 1513-yilning bahoriga

qadar Sayramni o'z qo'lida saqlab turgan amir Kattabek uni shayboniylargaga emas, balki ularning ashaddiy raqibi qozoq xoni Qosimxoniga topshirdi [3: 391-b]. Natijada qozoqlar shayboniylarning Turkiston va Toshkentdagagi mulklariga jiddiy xavf sola boshladilar.

Lekin bundan avval, ya'ni Bobur mirzoning mag'lubiyatidan keyin Sevinchxojaxon Farg'ona vodiysiga yurish boshlaydi. Haydar mirzo Sevinchxojaxonning bu yurishi Biskand jangidan uch oy o'tgach sodir bo'lganligini ta'kidlaganidan kelib chiqsak, mazkur yurishga 1512-yilning noyabr oyining oxiri va dekabr oyi sanasini belgilashimiz mumkin. Sevinchxojaxonning bu harbiy yurishi o'z nihoyasiga etmaydi. Bunga ko'proq Sulton Saidxon tomonidan amalga oshirilgan mudofaa rejasiga sabab bo'lgan. U Axsida Mir G'o'ri Barlos, Marg'ilonda Mir Doim Ali, Andijonda Said Muhammad boshchiligidagi qo'shin qoldirib, o'zi Andijon shimolidagi tog'larga chekinadi [3: 388, 389-b]. Qish boshlanayotgan hamda shimoldagi vaziyatning keskinligi saqlanib turgan bir vaqtida vodiy shaharlarini qamal qilishni maqsadga muvofiq emas deb topgan Sevinchxojaxon yurishni to'xtatib, qaytib ketishga majbur bo'ladi.

Bundan foydalangan Sulton Saidxon ham hujumkor siyosat yuritishga ham jazm etdi. U 1513-yilning bahorida Toshkent viloyatining Ohongaron tumaniga hujum qiladi. Farg'ona qo'shini bir necha mayda janglardagi g'alabalarga erishadi. Haydar mirzo ushbu yurishda shaxsan o'zi ishtirok etganligini ta'kidlab, janglarda Sulton Saidxonning alohida qahramonliklar ko'rsatganligini ham qayd etgan [3: 390-b]. Farg'ona qo'shini ham Toshkentga borishga jur'at etmay, katta o'ljalari bilan vodiyga qaytib ketgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 1513-yilning bahorida Sayramga ega bo'lib olgan qozoq xoni Qosimxon, biroz vaqt o'tgach Sayramni o'ziga in'om etgan amir Kattabekning iltimosiga ko'ra Toshkent shahri tomon ham yurish boshlaydi. Garchi u Toshkent shahrini zabit etmagan bo'lsa ham Sevinchxojaxonni bir muddat qamal qilib, atrofni talon-taroj qilgach, qozoq dashtlari tomon qaytadi.

Qosimxonning Toshkent yurishidan xabar topgan Sulton Saidxon yana bir bor Sevinchxojaxon ustiga yurish boshlaydi. Farg'ona qo'shini Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysi o'rtaisdagi Kandirlik dovoniga yetib kelgan vaqtida Qosimxonning qaytib ketganligi haqida xabar etib keladi. Natijada Sulton Saidxon ham yurishni to'xtatishga qaror qiladi.

1513-yilning yozida Sulton Saidxon Farg'ona vodiysi qal'alarini mustahkamlab, o'zi Mo'g'uliston orqali Qosimxon huzuriga yo'l oladi. Akademik V.V.Bartold Qosimxon va Sulton Saidxonning uchrashuvni 1513-yilning kuzida Chu daryosi bo'yida bo'lib o'tganligini ta'kidlagan. Lekin uning Qosimxon bilan olib borgan muzokaralari natijasiz tugaydi. Qozoq xoni shayboniylargaga qarshi yurish qilishga rozilik bermaydi. Bu haqida Haydar mirzo quyidagilarni bayon qiladi: "Yoz oxirlagan edi. Qosimxonning buyrug'i bilan qozoqlar qishlovga ko'chishdi. "Hozir Shaybonga (bu yerda shayboniy sulton Sevinchxojaxon nazarda tutilgan) qarshi yurish qilish qiyin. Hozirgi kunda odamlar qishning g'amini yeganlari ma'qul. Bu paytda lashkar to'planmaydi" dedi Qosimxon. Shu taxlit u muloyimlik bilan yurishni rad etdi. Ammo Qosimxon xonning hurmatini behad joyiga qo'yib kuzatdi va tug'ilib o'sgan makoniga ko'chdi. Xon uning yonidan mamnun holda qaytdi va Andijonga ketdi. Saroy olimlaridan biri bu voqeaga "Oshtin qozoq" ("Qozoqlar bilan sulh") so'zlariga tarix tuzdi, o'sha so'zdagi harflar yig'indisi 919 (1513-1514) yilni anglatadi" [3: 395-b].

Qosimxon yordam berishni rad etgach, Sulton Saidxon shayboniy sultonlar qarshiligidagi yengishga bo'lgan ishonchini butkul yo'qotadi. 1514-yilning aprel-may oyalarida Toshkent hokimi Sevinchxojaxon boshchiligidagi shayboniylar lashkari Farg'ona vodiysi tomon yurish boshlaydi. Sulton Saidxon esa qarshilik ko'rsatishdan voz kechib, vodiyni jangsiz tark etadi. Qoshg'arga chekingan Sulton Saidxon u erda Saidiya davlatiga asos soladi.

AMALIY

Biz Farg'ona vodiysida Shayboniylar va Sulton Saidxon kurashini ikki bosqichga bo'lib o'rganish zarur, deb o'ylaymiz. Birinchi bosqich 1503 – 1508 yillarni o'z ichiga olgan. 1503 yili Shayboniyxon Ahmad Tanbalga yordam berish maqsadida mo'g'ul xonlari Sulton Mahmudxon, Ahmadxon va temuriy hukmdor Bobur mirzolarga qarshi yurish boshlagan. Bu yurishda Sulton Ahmadxon bilan birga Mo'g'ulistonidan kelgan ikki o'g'li Sulton Saidxon va Bobojoq sultonlar ham qatnashgan. Ittifoqchilar tor-mor keltirilgan jangda asir tushgan Sulton Saidxonni Shayboniyxon Samarqandga olib ketdi. 1505-yili Shayboniyxon Xorazmni egallash uchun yurish boshlaganda, Sulton Saidxon asirlikdan qochib Mo'g'ulistonga amakisi Sulton Mahmudxon xuzuriga boradi. Amakisi bilan kelisha olmay undan qochib ukasi Sulton Xalil va Sulton

TARIX

Saidxonlarga qarshi akasi Mansurhon urish qilib ularni engadi. Illojsiz qolgan Sulton Saidxon yana Farg'ona vodiysiga qaytishga majbur bo'ladi. Farg'ona vodiysida hokimlik qilayotgan shayboniy sulton Jonibek Sulton Saidxonni asir oladi. Farg'onada asirlikdan qutilib, Bobur mirzo huzuriga boradi.

Ikkinchchi bosqich esa 1509–1514 yillarda bo'lib o'tgan. Shayboniyxon xalokatidan so'ng o'zbek sultonlaridan Sevinchxojaxonning Farg'onadagi hukmronligi tugatilib, Said Muhammad mirzo boshchiligidagi amirlar shayboniylarga qarshi kurashadi. Qo'zgolonchilar, bu vaqtida Xisorga yurish qilishga tayyorlanayotgan Bobur mirzoga yordam so'rab murojaat qidadilar. Bobur mirzo Farg'onaga hokimiyatni egallash uchun Sulton Saidxonni yuboradi.

Biz quyida yuqorida ko'rib chiqilgan bosqichlarda yuz bergan tarixiy jarayonlarni tahlil qilishga harakat qildik.

NATIJA

Sulton Saidxon otasi vafotidan keyin ikki marta Shayboniylar qo'liga asir tushgan va har safar omon qolishga erishib, oxir oqibat Qobul shahriga Bobur mirzo xuzuriga qochib boradi. Bobur mirzo yordamida Farg'onada o'z xukmronligini o'rnatdi. Farg'onadagi mo'g'ul qo'shiniga boshchilik qilib shayboniy sultonlar hususan Sevinchxojaxonga qarshi 1511-1514 yillarda kurash olib bordi. G'ijdivondagi Bobur mirzon shayboniylardan yengilishi Sulton Saidxonni ham Farg'onadagi hokimiyatini xavf ostida qoldirdi. Qozoq sultoni Qosimxon dan yordam olish uchun olib borgan elchilik aloqalari samarasiz yakunlandi. Sulton Saidxonning qo'shini Sevinchxojaxonning qo'shinidan bir necha barobar kamligi, kuchlar teng emasligi Sulton Saidxonni Mo'g'ulistonga ketishiga sabab bo'ldi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Sulton Saidxon shayboniy sultonlar bilan kurashi 1503-yili boshlanib 1514-yilga qadar davom etganini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida aytilgan bosqichlarning ikkinchisida Sulton Saidxon shayboniylardan Sevinchxojaxon bilan Farg'ona vodiysida kurash olib borganligini takidlamoqchimiz.

1511-yili Farg'ona vodiysida Shayboniylarga qarshi kurash natijasida tashkil topgan Sulton Saidxon davlati 1514-yilga qadar, ya'ni to'liq uch yil o'z mavjudligini saqlab turdi. Uning tashkil topishi Shayboniyxonning halokati va Bobur mirzoning Movarounnahrni shayboniylardan qaytarib olish harakatlari bilan bog'liq edi. Bu davlatning halokati ham Bobur mirzoning G'ijdivondagi mag'lubiyyati natijasida yuzaga keldi. Garchi Sulton Saidxonning Farg'ona davlati Bobur mirzo Movarounnahrni tark etganidan keyin ham yana ikki yil yashagan bo'lsa-da, bu asosan tashqi siyosiy vaziyat bilan bog'liq edi. Shayboniylar davlatiga shimoldan qozoq xoni Qosimxonning, janubdan Eron shohi Ismoilning ta'sirini yo'qolib borishi Farg'ona vodiysini ham shayboniylar davlati tarkibiga tinch yo'l bilan kirishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья - Фрунзе: Киргизгосиздат. 1943.
2. Муҳаммадёр ибн Араб Катаған. Мусахир ал-билод /Форс тилидан таржима, изоҳдар ва қўрсаткичлар муаллифлари: И smoил Бекжонов, Дилором Сангирова - Т.: Янги аср авлоди. 2009.
3. Мирзо Муҳаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А. Урунбаева, Р.П. Джалиловой, Л.М. Епифановой, примечания и указатели Р.П. Джалиловой и Л.М. Епифановой - Т.: Фан. 1996. С. Муҳаммад Хайдар Мирзо Тарихи Рашидий/ Суз боши ва изоҳяр муаллифи ҳамда таржимонлар В. Рахмонов ва Я. Эгамова - Т.: Шарқ. 2010, Б, 357.
4. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома / Таҳрир ҳаяти А. Қаюмов ба бошқалар; Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Э. Шодиев. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
5. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. / Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. - Т.: Юлдузча. 1989.
6. Хоғиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома/ Форс тилидан С. Мирзаев таржимаси, илмий мухаррир, нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳдар муаллифи академик Б. Ахмедов - Т.: Шарқ. 1999.
7. Азимконова С.Қ. К истории Ферганы второй пол. XV в. Изд-во АН УзССР. Ташкент, 1962; Она же. Государство Бобура в Кабуле и в Индии. М.: Наука, 1977.
8. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 430 б.
9. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – 199 б.
10. Замонов А. Бuxoro xonligida kўshin tuziliishi va ҳarbий boшқaruv. – Т.: BAYOZ, 2018. – 208 б.
11. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. / Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Т.: Юлдузча, 1989. – 367 б.
12. История народов Узбекистана. Т.2 / под пед. С.В.Бахрушина. – Т.: АН УзССР, 1947. – 459 б.
13. История Узбекистана (XVI-первая половина XIX в). Ответ редактор Д.А.Алимова. – Т.: Фан, 2012. – С.

20 – 84.

14. Камолиддин Биноий – Шайбонийнома / Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. XVI-XIX асрлар – Т.: Fan va texnologiya, 2014. – Б. 7 – 12.
15. Нишонов А. Султон Сайдхон ҳукмронлиги даврида Фарғона давлати // ФарДУ илмий хабарлари. 2018. – № 2. – Б. 50 – 53.
16. Сайфиддин Ж. Бобирнинг Фарғона давлати. – Т.: Фан, 1995. – 148 б.
17. Юсупова Д. Фарғона водийсининг XVI-XVIII асрлар даври тарихига оид қўлёзма асарлари // Фарғона водийси янги тадқиқотларда Республика илмий анжуман материаллари. 2012. – Б. 122 – 125.
18. Branko Soucek, Svat Soucek. A history of inner Asia. Cambridge University press, 2000. – Р. 337.
19. Rene Grousset. The Empire of the Steppes a History of Central Asia / Translated from the French by Naomi Walford. Rutgers university press. New Jersey, 1970. – Р. 653.